


2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2019 yilning may oyida tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari o'rtacha 0,7 % ga ko'tarildi.



Umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-may oylari davomida iste'mol bozorida tovarlar va xizmatlar narxlari 6,0 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning may oyiga nisbatan respublika iste'mol sektoridagi o'rtacha narxlar darajasi 13,7 %ga oshdi.

Tagqoslash uchun: 2018 yilning mayida tovar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha 0,8 %ga, 2017 yilning dekabriga nisbatan 6,6 %ga, 2017 yilning may oyiga nisbatan 19,0 %ga qimmatlashgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Izoh: bu yerda va bundan keyingi infografikalardagi rim raqamlari oy raqamlarini ko'rsatadi.


Oylik narxlar tebranishi tahliliga ko'ra, umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol narxlari ko'tarilish 6,0 %ni tashkil etib, ularning o'sish sur'atlarida nisbatan sekinlashuv qayd etilgan. Joriy yilning birinchi choragida narxlarning oylik o'sish sur'ati bir foizlik

ko'rsatkichdan 0,2-0,6 darajada yuqoriroq oshgan bo'lsa (yanvarda 1,5 %, fevralda 1,6 %, mart oyida 1,2 %), aprel va may oylarida ushbu ko'rsatkichdan pastroqni tashkil etgan (aprelda 0,9 %, may oyida 0,7 %).

2018 yil va 2019 yilning yanvar-may oylari uchun umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasining yillik ko'rinishi (o'tgan yilning mos oyiga nisbatan) umumiy tendentsiyaning bosqichma-bosqich pasayishi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, eng yuqori ko'rsatkich 2018 yilning yanvar oyida qayd etilgan bo'lsa, keyinchalik 2019 yilning may oyida 13,7 % darajagacha pasaygan. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichining minimal darajaga yetganligi 2019 yilning yanvarida kuzatilib (13,0 %), yillik iste'mol narxlari indeksi asta-sekin ko'tarila boshladi.

Quyida 2017 yilning dekabriga nisbatan 2018 yil va 2019 yil yanvar-may oylaridagi uzoq muddatli narxlar ko'rsatkichi keltirilgan:

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
umumiy iste'mol narxlari
indeksi dinamikasi,
2017 yilning dekabriga nisbatan, %**



2019 yilning may oyi natijalariga ko'ra yirik guruhlar bo'yicha narx o'zgarishlari tovarlarda 0,6 %, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 0,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,7 %, xizmatlar esa 1,5 %ga qimmatlashdi.

O'tgan oyga nisbatan 2019 yilning may oyida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy
guruhlarning iste'mol narxlari indeksi, %



100,5 Oziq-ovqat mahsulotlari

100,7 Nooziq-ovqat mahsulotlari

101,5 Xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2018 yilning mayida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida o'rtacha 0,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,6 %, xizmatlar 2,1 %ga qimmatlashgan.

Umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-may oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari 7,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 4,6 %, xizmatlar 4,6 %ga qimmatlashdi.

Yil davomida (2019 yil may oyi 2018 yilning may oyiga nisbatan) oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 16,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 11,2 %, xizmatlar 12,5 %ga ko'tarildi.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning may oyi 2017 yil dekabriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari 6,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 5,8 %, xizmatlar 7,6 %ga qimmatlashdi. 2017 yilning may oyi bilan solishtirilganda, narxlarning o'sishi mos ravishda 21,4 %, 18,6 %, 13,7 %ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksi, %


2018 yil may

2019 yil may


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



oziq-ovqat mahsulotlari


nooziq-ovqat mahsulotlari

xizmatlar

2017 yilning dekabriga solishtirilganda iste'mol narxlarining o'sishi bo'yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlari (17 oy davomida 24,0 %ga o'sdi), keyingi o'rinlarda xizmatlar (21,1 %), nooziq-ovqat mahsulotlari (17,6 %)ga to'g'ri keldi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlarning iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, 2017 yilning dekabriga nisbatan, o'sishi %




Oy davomidagi har bir yirik guruhning salmoq vaznini inobatga olgan holda narxlar o'zgarishining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning may oyida umumiy iste'mol narxlari indeksiga tovarlar narxlari o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatib (0,4 foiz darajasida, keyingi o'rinlarda f.d.), bu vaqtda xizmatlar ta'siri 0,3 f.d.ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning may oyida asosiy inflyatsiya bosimi bo'yicha ustunlik xizmatlar tariflariga taalluqli bo'lib (0,5 f.d.), umumiy INI o'sishiga ta'siri bo'yicha bu vaqtda tovarlar ulushi 0,3 f.d.ga teng bo'lgan.

2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy guruhlar bo'yicha tovar va xizmatlarning har bir oydagi narxlar o'zgarishi hamda ularning umumiy INIga ta'siri dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sishini va uning ta'siri mutlaq ravishda bosqichma-bosqich pasayib borgan (yanvar oyida 1,2 f.d., fevralda 0,9 f.d., mart oyida 0,6 f.d., aprelda 0,4 f.d., mayda 0,2 f.d.).

2019 yil yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlarini o'sishida tovar va xizmatlar asosiy guruhlarini narxlarini o'zgarishining ta'siri, f.d.


o'tgan oyga nisbatan



Shu bilan bir qatorda, 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy INI o'sishiga ta'siri jihatidan ustunlik hamon oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga tegishlidir (oziq-ovqat mahsulotlari 3,4 f.d., nooziq-ovqat mahsulotlari 1,6 f.d., xizmatlar 1,0 f.d.).

2019 yil yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlarini o'sishida tovar va xizmatlar asosiy guruhlarini narxlarini o'zgarishining ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




Taqqoslash uchun: 2018 yilning may oyiga nisbatan iste'mol narxlari indeksining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari 7,1 f.d., nooziq-ovqat mahsulotlari 3,9 f.d., xizmatlar 2,7 f.d.ga teng bo'lgan.

2019 yilning mayida umumiy oylik INI o'sishida oziq-ovqat mahsulotlari 27,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 31,1 %, xizmatlar 41,9 %ga narxlari o'sish ulushini tashkil etib, ular quyidagi diagrammada yaqqol namoyish etilgan:



Asosiy guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari o'sishidagi ta'siri, %



○ oziq-ovqat mahsulotlari

○ nooziq-ovqat mahsulotlari

○ xizmatlar






Taqqoslash uchun: 2018 yilning yanvar oyida tovarlar va aholi uchun pullik xizmatlar ta'siri nisbati mos ravishda 89,0 % va 11,0 %, fevralda 85,5 % va 14,5 %, mart oyida 90,4 % va 9,6 %, aprelda 32,6 % va 67,4 %, mayda 39,2 % va 60,8 %ni tashkil etgan.



Asosiy guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlariga ta'siridagi ta'siri, %

2019 y.

- yanvar-may -
o'tgan yilning
dekabriga nisbatan



○ oziq-ovqat mahsulotlari

○ nooziq-ovqat mahsulotlari

○ xizmatlar

O'tgan yilning dekabriga nisbatan umumiy INIning tovar va xizmatlar narxining o'sishi dinamikasidagi o'zgarishlar oziq-ovqat mahsulotlarining inflatsion bosimini bosqichma-bosqich pasayishi bilan ifodalanadi (ta'sir ulushi 80,0 %dan 56,9 %gacha pasaydi). Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi, aksincha, joriy yilning yanvar oyidan may oyiga qadar 13,3 %dan 26,5 %gacha ko'tarildi. Xizmat ko'rsatish tariflarini umumiy INIning o'sishidagi ta'sir ulushi 2019 yilning yanvar oyida 6,7 %dan may oyida 16,6 %gacha ko'tarildi.

Ma'lumot uchun: Shu o'rinda umumiy iste'mol narxlari indeksining yillik o'zgarishi tizimida, 2019 yilning may oyida o'sish ta'siri oziq-ovqat mahsulotlari 7,1 f.d. yoki 52,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 3,9 f.d. yoki 28,2 %, aholi uchun pullik xizmatlar 2,7 f.d. yoki 19,8 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oy davomida 0,5 %ga qimmatlashganligi umumiy INI ko'rsatkichining 0,2 f.d.ga oshishini ta'minladi.

2019 yil boshidan ushbu guruh mahsulotlari narxi o'rtacha 7,9 %ga qimmatlashdi.


Yil davomida (2019 yil may oyi 2018 yilning may oyiga nisbatan) mazkur guruh mahsulotlari narxlari 16,3 %ga ko'tarildi.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning mayida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida 0,2 %ga qimmatlashgan. 2018 yilning yanvar-may oylari davomida esa narxlar 6,6 %ga oshgan. Yillik tahlil natijalariga ko'ra (2018 yil may 2017 yil mayga nisbatan), oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sishi sur'ati 21,4 %ni tashkil etgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

May
2019 y.



May
2018 y.



2019 yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari umumiy narxlar ko'tarilishiga qaramay (7,9 %), umumiy natijada ushbu davrning har bir oyidagi narxlar o'sishi sur'atining sekinlashganligi bilan tavsiflanadi (joriy yilning yanvar oyida 2,8 %dan may oyida 0,5 %gacha).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

2018 yil

2019 yil


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2019 yilning may oyi davomida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhining iste'mol narxlari indeksi quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:



2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlaridan narxlarning o'sishi borasidagi yetakchilik joriy oy davomida alkogolsiz va spirtli ichimliklar (narxlar mos ravishda 1,5 % va 1,4 %), yana go'sht mahsulotlari (0,7 %) guruhiga tegishli bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2018 yilning may oyida yetakchi uchlik, go'sht mahsulotlari (2,4 %), alkogolsiz ichimliklar (0,9 %) va non mahsulotlari (0,5 %)ni tashkil etgan.


Shuni ta'kidlash kerakki, 2018 yil may oyida meva va sabzavot mahsulotlarining o'rtacha narxlari pasayishi qayd etilgan bo'lib (2,3 %ga), 2019 yilning may oyiga kelib meva, sabzavot va kartoshka biroz ko'tarildi (0,4 %ga), bu bahorning iqlim ta'siri ostida sodir bo'ldi.



2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %



o'tgan oyga nisbatan



Oy davomida meva-sabzavot mahsulotlaridan piyoz (24,8 %), sabzi (10,4 %), olma (7,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi. Shu bilan birga, bodring narxi 46,9 %, pomidor 31,4 %, karam 6,8 %ga arzonlashdi.

2018 yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinlar uzum (1,9 baravar), tarvuz va piyoz (1,6 baravar) mahsulotlari narxlariga tegishlidir. Shu bilan bir qatorda, 2019 yilning besh oyi mobaynida bodring narxi deyarli 2/3 arzonlashdi.

2019 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning mayiga nisbatan
Olma	122,6	77,7
Nok	139,4	107,1
Banan	119,8	103,9
Uzum	185,6	72,3
Sitrus mevalar	106,2	110,6
Qurtilgan mevalar	106,5	114,7
Yong'oqlar	103,9	102,2
Yer yong'oq	103,9	104,9
Tarvuz	162,7	133,7
Qovun	146,2	132,2
Oshqovoq	152,8	133,0
Karam	141,1	292,5
Piyoz	162,2	158,9
Lavlagi	110,2	140,0
Sabzi	133,7	226,7
Bodring	32,5	61,7
Pomidor	99,4	76,8
Sarimsoq	119,1	69,8
Kartoshka	110,6	86,4



Yillik natijalarga ko'ra karam (2,9 baravar), sabzi (2,3 baravar), piyoz (1,6 baravar), lavlagi (1,4 baravar) narxlari boshqa turdagi mahsulotlarga

nisbatan bir muncha yuqori darajada qimmatlashdi. Bu davrda bodring (38,3 %), sarimsoq piyoz (30,2%), uzum (27,7 %), pomidor (23,2 %) va kartoshka (13,6%) narxlari arzonlashganligi qayd etildi.

2019 yil may oyi 2018 yil dekabriga nisbatan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhining narxlari o'zgarishi quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

 **2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Umuman olganda, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida meva va sabzavot mahsulotlari (20,9 %), sut mahsulotlari (9,9 %), spirtli ichimliklar (7,7 %), non mahsulotlari (4,9 %), shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (4,8 %) qimmatlashdi. Narxlarning pasayishi esa faqat tuxum mahsulotida kuzatildi, ya'ni besh oy davomida 4,3 %ga arzonlashdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %


Guruhlar nomi	2019 yil may 2018 yil mayiga nisbatan
Non mahsulotlari	130,9
Go'sht, parranda go'shti va baliq	117,0
Sut mahsulotlari	116,9
Tuxum	114,7
Yog' va moylar	110,5
Shakar, choy va boshqa mahsulotlar	107,5
Mevalar, sabzavotlar va kartoshka	108,5
Spirtli ichimliklar	113,8
Alkogolsiz ichimliklar	105,4
Umumiy ovqatlanish	116,5

Yillik ko'rinishda oziq-ovqat mahsulotlari orasida non mahsulotlari (30,9 %), go'sht va baliq mahsulotlari (17,0 %), sut mahsulotlari (16,9 %) va umumiy ovqatlanish (16,5 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.



2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeks, %

Guruch



Bug'doy uni



Mol go'shti
(suyaksizdan tashqari)




Qo'y go'shti



Parranda go'shti
(son qismlaridan tashqari)



Tuxum



Sut



Shakar



2019 yilning apreliga nisbatan

2018 yilning dekabrigha nisbatan

2018 yilning mayiga nisbatan

Ma'lumotlarga asosan, joriy yilning may oyida asosiy turdagi oziq-ovqatlardan oy davomida boshqa mahsulotlarga nisbatan qo'y go'shti (0,9 %), guruch va mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashqari) (0,7 %) narxlari yuqoriroq sur'atlarda qimmatlashdi. Shuningdek, son qismlardan tashqari parranda go'shti (0,8 %) va tuxum (1,1 %) narxlarining arzonlashganligi qayd etilgan.

2018 yilning oxiriga nisbatan sut (13,3 %) va guruch (7,9 %) mahsulotlari narxlarining sezilarli darajada qimmatlashganligi ro'yxatga olingan. Tuxum va parranda go'shti mahsulotlari narxlari esa mos ravishda 4,3 % va 1,4 %ga arzonlashgan.

2018 yilning may oyi ma'lumotlari bilan taqqoslaganda, guruch narxlari 57,8 %, sut 24,4 %, mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashqari) 17,9 %, qo'y go'shti 17,2 % va bug'doy uni 17,1 %ga oshgan.


Asosiy guruhlar bo'yicha joriy yilning may oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishi va ularning salmoq vaznlarini hisobga olgan holda umumiy INI ko'rsatkichiga ta'sir darajasi bo'yicha yetakchilik go'sht mahsulotlariga (0,07 f.d.) to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda non mahsulotlari hamda meva va sabzavotlar (0,03 f.d.), sut mahsulotlari, shakar, choy, va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, spirtli ichimliklar va umumiy ovqatlanish (0,02 f.d.) narxlari egallagan.

2019 yil may oyi o'tgan yilning dekabriga nisbatan umumiy iste'mol narxlari indeksida yetakchi o'rinni meva va sabzavot mahsulotlari (1,7 f.d.) egallagan. Keyingi o'rinlarda ta'sir darajasi bo'yicha go'sht mahsulotlari (0,5 f.d.), non mahsulotlari (0,4 f.d.), sut mahsulotlari, shakar, choy, va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (0,3 f.d.) egallab turibdi.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning may oyida umumiy ko'rsatkich ta'sir darajasi bo'yicha oylik yetakchilik go'sht mahsulotlariga tegishli bo'lgan (0,3 f.d.). 2017 yil dekabriga nisbatan – meva sabzavot mahsulotlariga tegishli bo'lgan (1,3 f.d.).



2019 yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlari o'zgarishi, f.d.




Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

2019 yilning aprel oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 0,7 %ga qimmatlashishi umumiy INIning oy davomidagi o'sishiga 0,2 f.d.da ta'sir etdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

May
2019 y.



May
2018 y.



Joriy yilning yanvar-may oylari davomida ushbu guruh mahsulotlari narxi 4,6 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning may oyiga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlarning yillik narxlar o'sishi 11,2 %ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeks dinamikasi, %

2018 yil

2019 yil



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Umumiy hisobda o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019 yilning yanvar-may oyi natijalarini 2018 yilning yanvar-may oylaridagi mos ko'rsatkichlar bilan solishtirganda, narxlarning o'sish sur'atlarini

birmuncha sekinlashganligini ko`rish mumkin. 2018 yilning dastlabki besh oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari o`rtacha 5,8 %ga ko`tarilgan bo`lsa, 2019 yilning mos davridagi ko`rsatkich 4,6 %ni tashkil etgan.

Yillik narx o`zgarishlari dinamikasida o`tgan davr narxlariga nisbatan kamayish kuzatildi: 2019 yil may oyida (11,2 %) aksincha 2018 yil may oyida 18,6 %ni tashkil etgan.

2019 yilning may oyi uchun nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste`mol narxlari indeksi quyidagi ko`rinishda taqdim etilgan:



2019 yilning may oyi uchun nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining qimmatlashishi gazlama va eshilgan iplar (1,5 %), shaxsiy gigiyena mahsulotlari (1,0 %), avtomobillar uchun yoqilg`i (0,9 %) mahsulotlarida kuzatildi. Bundan tashqari, narxlarning o`sishi o`rtacha guruhdan yuqori bo`lgan sur`atlarda bosma nashr (1,3 %),

qishloq xo'jalik anjomlari va zargarlik buyumlari (1,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2018 yilning dekabr oyiga nisbatan birmuncha yirik sur'atlarda bosma nashr mahsulotlari (19,3 %), aloqa vositalari (11,5 %), yuvish va tozalash vositalari (10,7 %), madaniy mollar (8,6 %), asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlar (8,4 %), shaxsiy gigiyena mahsulotlari va qishloq xo'jalik anjomlari (6,3 %), gazlama va eshilgan iplar (6,2 %) narxlari qimmatlashgan.

2019 yilning may oyida asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining 2018 yilning dekabriga nisbatan iste'mol narxlari o'zgarishi quyidagi jadval ko'rinishida namoyish etilgan:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

	2019 yil may:	
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning mayiga nisbatan
Kiyim-kechak	105,1	110,9
Oyoq kiyim	104,9	109,9
Gazlama va eshilgan iplar	106,2	111,7
Qurilish materiallari	102,6	105,3
Mebel	105,2	108,1
Gilam va gilam mahsulotlari	104,7	110,5
Maishiy to'qimachilik mahsulotlari	105,4	110,6

	2019 yil may:	
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning mayiga nisbatan
Asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlar	108,4	111,7
Oshxona anjomlari	105,6	108,5
Yuvish va tozalash vositalari	110,7	114,3
Avtomobillar uchun yoqilg'i	101,0	117,5
Madaniy mollar	108,6	109,4
Aloqa vositalari	111,5	116,7
Kitob, gazeta va jurnallar	119,3	121,0
Shaxsiy gigiyena mahsulotlari	106,3	109,3

Yillik tahlil natijalariga ko`ra, maishiy ehtiyoj maqsadlarida ishlatiladigan ko`mir (1,7 baravar), bosma nashr mahsulotlari (21,0 %), gugurt (18,6 %), avtomobillar uchun yoqilg'i (17,5 %), tamaki mahsulotlari (16,8 %) va aloqa vositalari (16,7 %) narxlari yuqori sur`atlarda qimmatlashdi.


Asosiy guruhlar bo`yicha nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari o`zgarishi va ularning salmoq vaznlarini hisobga olgan holda umumiy INI ko`rsatkichiga ta`sir darajasi bo`yicha 2019 yil may oyining o`tgan oyga nisbatan narxlarning o`sishi kiyim-kechak (jami 0,07 f.d.), qurilish materiallari (0,03 f.d.) va avtomobillar uchun yoqilg'i, gazlama va eshilgan iplar (0,02 f.d. bo`yicha) narxlari egallagan.

2018 yilning dekabriga nisbatan kiyim-kechak va oyoq qiyim narxlarining ko'tarilishi umumiy INIga 0,51 f.d.da, maishiy to'qimachilik mahsulotlari, gazlama va eshilgan iplar, shaxsiy gigiyena mahsulotlari 0,21 f.d., qurilish materiallari 0,11 f.d.da ta'sir etgan bo'lgan.




2019 yil yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxleri indeksi o'sishida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxleri o'zgarishi, f.d.

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



- kiyim-kechak, oyoq kiyim
- maishiy to'qimachilik, gazlama va eshilgan iplar
- madaniy mollar
- qurilish materiallari
- maishiy mahsulotlar va elektr asboblari, aloqa vositalari
- shaxsiy gigiyena mahsulotlari
- yuvish va tozalash vositalari
- boshqalar



Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi

2019 yilning may oyida aholi uchun xizmatlar tariflarining 1,5 %ga oshganligi oy davomida umumiy INIning 0,3 f.d.da ko'tarilishiga sabab bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

May
2019 y.



2019 yil boshidan ushbu sohadagi tariflar narxi o'rtacha 4,6 %ga ko'tarilgan.

O'tgan yilning may oyi bilan taqqoslaganda tariflar narxlari 12,5 %ga oshgan.

2019 yil boshidan narxlarning sezilarli darajada qimmatlashishi mart (1,2 %) va may oylarida (1,5 %) qayd etilgan.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
aholi uchun pullik xizmatlarning
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %**

2018 yil

2019 yil

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan




2018 va 2019 yillarning yanvar-may oylaridagi tariflar o'sishini taqqoslaganda, 2018 yilning aprel va mayida uy-joy kommunal

sohasidagi tariflarning ko'tarilishi (mos ravishda 9,3% va 2,3%) ta'sirida 2018 yildagi narxlar sezilarli darajada qimmatlashgan (7,6 %ga nisbatan 4,6 %).



2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun alohida turdagi xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



2019 yil may oyida aholiga pullik xizmat ko'rsatish tariflari indeksida eng katta ta'sir maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlarining oshishi bo'ldi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda qabul qilingan №-4086 sonli qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida" 2019 yil 1 maydan boshlab byudjetdan tashqari moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni parvarishi uchun ota-onalar tomonidan to'lanadigan to'lovlar miqdori oshirildi. O'rta hisobda respublikada maktabgacha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatish 20,5 %ga oshdi, bu esa oy davomida inflyatsiyani 0,21 f.d. ko'tarilishiga olib keldi.

Bundan tashqari, ta'riflarning o'sishi bir foizdan oshadigan sport xizmatlari (2,5 %) va maishiy xizmatlar (1,3 %) qayd etildi.

Joriy yilning may oyida kuzatilayotgan maishiy turdagi xizmatlardan avtoturargoh uchun to'lovlar (oylik 5,3 %, yil boshidan 15,4 %), avtomobillarni yuvish va yuklarni avtotransportda tashish xizmati (oylik 2,1 %), hammom va dush xizmatlari (1,9 %), tikuvchilik buyumlari ta'miri (1,5 %), sartaroshxona xizmatlari (1,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.


2019 yil boshidan maishiy turdagi xizmatlar 8,6 %, uy-joy kommunal xizmatlari 1,2 %, yo'lovchi tashish transporti xizmatlari 1,9 % (yanvar oyida 0,9 %), aloqa xizmatlari 4,2 % (mart oyida 3,9 %), madaniyat muassasalari xizmatlari 4,6 % (mart oyida 3,2 %), sport xizmatlari 5,8 % (mayda 2,5 %), dam olish xizmatlari 9,0 % (yanvarda 4,2 %), tibbiy xizmatlar 3,1 % (fevralda 1,1 %) va ta'lim xizmatlar 6,9 % (mart oyida 6,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Quyida 2018 yil dekabr oyiga nisbatan asosiy guruhlar bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar tariflari o'zgarishi namoyish etilgan:



2019 yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %


o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Har bir xizmatlar guruhining salmoq vaznlarini hisobga olgan holda narxlarning o'sishi borasidagi yetakchi pog'onalarni maktabgacha ta'lim (0,21 f.d.), maishiy (0,05 f.d.), yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (0,02 f.d.) band etgan.



2019 yilning yanvar-may oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
umumiy iste'mol narxlarini indeksi o'sishida
xizmatlar guruhlarini narxlarini o'zgarishi, f.d.



2019 yilning yanvar-may oylarida xizmatlar tariflaridagi indekslar tarkibida ta'sir darajasi bo'yicha yetakchilik maishiy xizmatlar (0,3 f.d.), maktabgacha ta'lim muassasalari - MTM xizmatlari (0,21 f.d.) va boshqa

ta'lim, jumladan oliy ta'lim va kurs mashg'ulotlari (0,12 f.d.) xizmatlariga to'g'ri keldi.

Navbatdagi jadvalda aholi uchun asosiy turdagi xizmatlar guruhining yillik narx indeksleri o'zgarishi namoyish etilgan.

2019 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun alohida turdagi xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

Xizmatlar nomi	2018 yilning mayiga nisbatan
Maishiy xizmatlar	115,0
Uy-joy kommunal xizmatlari	112,9
Yo'lovchi transporti xizmatlari	110,0
Aloqa xizmatlari	104,8
Madaniyat muassasalari xizmatlari	109,1
Sport xizmatlari	117,4
Dam olish xizmatlari	111,3
Tibbiy xizmatlar	108,0
Ta'lim xizmatlari	122,7
MTM xizmatlari	118,7

2018 yilning may oyidan 2019 yilning may oyigacha ta'lim xizmatlari (22,7 %), maktabgacha ta'lim va sport muassasalari xizmatlari (mos ravishda 18,7 % va 17,4 %), uy-joy kommunal xizmatlari (12,9 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74